

KRIPTOVALYUTALAR: MOHIYATI VA ZAMONAVIY MOLIYA BOZORIDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Sherkuziyeva N.A.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Ma'lumki, mamlakatimizda «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta'minlash bo'yicha xalq ta'limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Bu esa molyaviy texnologiyalar sohasida real amaliyot va bu boradagi ilg'or xorij tajribalari asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish va sohani rivojlantirishda joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillarimizga ko'ra bugungi kunga kelib, kriptovalyutalarning yagona ta'rifi mavjud emas. Masalan, Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) ularni “virtual valyuta” (“virtual currency”¹), “raqamli valyuta” (“digital currency”) va “kriptovalyuta” (“cryptocurrency”²) tushunchalari bilan qiyoslab, ushbu “raqamli valyuta”ni quyidagi asosiy xususiyatlar orqali tavsiflaydi:

- faqat elektron shaklda emissiya qilinadi;
- milliy valyutalarda chiqarilmagan va ular bilan bog'lanmagan;
- hech kimning majburiyati emas (an'anaviy puldan farqli o'laroq);
- ichki qiymati nolga teng, ya'ni to'lovlar oqimini yaratmaydi;
- “peer-to-peer” almashinuvi, ya'ni taqsimlangan reyestr texnologiyasidan foydalangan holda tizim ishtirokchilari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri (markazlashtirilmagan) almashinuv uchun foydalaniladi;
- pulning ayrim xususiyatlariga ega bo'lgan aktiv (xususan, to'lov vositasi hisoblanadi).

Shunday qilib, Xalqaro hisob-kitoblar banki kripto valyutaga bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega aktiv sifatida qaraydi. Bundan tashqari, Xalqaro hisob-

¹ European Central Bank. *Virtual currency schemes*. ECB Report. 1–55, October 2012.

² Bank of international settlements, CPMI. *Digital currencies*. 2015; Bank of international settlements, CPMI. *Central bank digital currencies*. 2018.

kitoblar banki raqamli valyutalarni elektron pulning potentsial o'rnini bosuvchi vosita sifatida ko'rsatishi diqqatga sazovordir. An'anaga ko'ra, pul tushunchasi uning bajaradigan funksiyalari orqali aniqlanadi.

Xususan, Yevropa markaziy banki hisobotiga ko'ra, "pul - bu operatsiyalarda qiymat almashish uchun keng qo'llaniladigan har qanday narsa. Pul to'lov vositasi (almashinuvi), qiymatni saqlash vositasi (jamg'arish vositasi) va qiymat o'lchovi bo'lib xizmat qiladi"³. Mamlakatning umumiy pul massasining faqat kichik bir qismi odatda banknotlar va tangalar shaklida muomalada bo'ladi.

Shuningdek, Yevropa markaziy banki elekton pullar (e-money)ni shunday ta'riflaydi, xususan, "elekton pullar (e-money) bu boshqa tashkilotlarga to'lovlarni amalga oshirishda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan, pul qiymatini texnik uskunada elektron saqlashdir"⁴.

Qoidaga ko'ra elektron pullar fiat valyutalar bilan bir xil hisobda saqlanadi. Kriptovalyutalar uchun esa bu boshqacha ishlaydi.

Yevropa markaziy banki kriptovalyutalarni "virtual valyutalardan foydalanishning markazlashtirilmagan ikki tomonlama sxemalari"⁵ deb ataydi. Shu bilan birga, virtual valyuta deganda ma'lum sharoitlarda pulga muqobil sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan Markaziy bank, kredit instituti yoki boshqa elektron pul emitenti tomonidan chiqarilmaydigan qiymatning raqamli tasviri tushuniladi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF, IMF) ham kriptovalyutasining qat'iy ta'rifini keltirmaydi. Biroq, XVF talqiniga ko'ra, kriptovalyutalar bu valyutalar emas, balki investitsiya qilish juda xavfli bo'lgan aktivlardir⁶.

Tabiiyki, savol tug'iladi: yuqorida sanab o'tilgan pul xususiyatlaridan qaysi biri kriptovalyutalarga xos hisoblanadi?

Bugungi kunda kriptovalyutalar qisman to'lov vositasi vazifasini bajaradi, chunki iqtisodiy agentlarning ayrim guruhlari ularni tovarlar va xizmatlar uchun to'lov vositasi sifatida qabul qilishga tayyor. Xalqaro hisob-kitoblar banki hisobotiga ko'ra, "pul — bu jamoat ishonchiga ega bo'lgan davlatga bo'sunuvchi muassasa tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ajralmas ijtimoiy kelishuvdir"⁷.

Shu bilan birga, kriptovalyutalar bugungi kunda asosiy kriptovalyutalar kursining yuqori o'zgaruvchanligi tufayli ishonchli jamg'arish vositasi va qiymat o'lchovi emas. Kriptovalyutasining kurs qiymati talab va taklif asosida bozorda

³ European Central Bank. *Virtual currency schemes — a further analysis*. ECB Report; February 2015:1–37.

⁴ URL: https://www.ecb.europa.eu/stats/money_credit_banking/electronic_money/html/index.en.html

⁵ European Central Bank. *Virtual currency schemes — a further analysis*. ECB Report; February 2015:1–37.

⁶ International Monetary Fund. *Money, transformed. The future of currency in a digital world*. Finance and development. 2018;55(2).

⁷ Bank of international settlements, CPMI. *Central bank digital currencies*. 2018.

o'rnatiladi. Shu munosabat bilan kurslarning yuqori o'zgaruvchanligiga ikki jihat ta'sir qiladi: birinchidan, yuqori spekulyativlik, ikkinchidan, kripto valyutasining cheklangan taklifi, ya'ni, bozor talabiga javoban uning taklifini elastik ravishda kengaytirish qiyinligi. Shu sababli, bugungi kunda kripto valyutalar xarid qobiliyatini saqlab qolish uchun ishonchli vosita bo'lib xizmat qila olmaydi. Kripto valyutalar kursining beqarorligi, shuningdek, kripto valyutalar birliklarida ifodalangan narxlarni tez-tez qayta ko'rib chiqish zarurati tufayli kripto valyutalarni qulay qiymat o'lchovi deb hisoblash mumkin emasligini ham bildiradi. Bundan tashqari, kursning yuqori o'zgaruvchanligi (kripto valyutalar hech kimning majburiyati emasligi bilan birga) kripto valyutalarga bo'lgan ishonchni ma'lum darajada pasaytiradi, bu ham ularning to'liq "pul" sifatida tarqalishiga imkon bermaydi.

Ammo "pul" dan farqli o'laroq, kripto valyutalar ma'lumotlarni saqlash va uzatishning o'ziga xos funksiyasini bajaradi. Birinchidan, kripto valyutalarning blokcheynlari himoyalangan va o'zgartirish mumkin bo'lmagan barcha tranzaksiya ma'lumotlarini saqlaydi. Shu munosabat bilan, har qanday masalalarni hal qilish uchun har doim ushbu ma'lumotlar manbasiga murojaat qilish mumkin.

Ikkinchidan, ko'plab kripto valyutalar smart-shartnomalarni yozish qulayligi uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, bu nafaqat vositachilardan xalos bo'lish va ko'plab turdagi bitimlar uchun vaqt va pul xarajatlarini kamaytirish, balki kripto valyutalar blokcheyniga ushbu bitimlar to'g'risida ma'lumotlarni yozish imkonini beradi, ya'ni, vijdotsiz kontragentlarning xohishiga binoan o'zgartirish mumkin bo'lmaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, kripto valyutalar ishonchli jamg'arish vositasi emas, boshqacha qilib aytganda, uzoq vaqt davomida barqaror harid qobiliyatiga ega emas. Shu bilan birga, kripto valyutasi kontekstida mulk huquqi masalasi munozarali bo'lib, u har bir mamlakatdagi qonuniy tartibga solishga bog'liq.

Kripto valyutalar ko'pincha yer, ko'chmas mulk yoki aksiyalar va obligatsiyalardan farqli o'laroq, egasiga pul oqimlarini olishni ta'minlamaydi. Aynan shu jihat ham odatda kripto valyutalarda ichki (asosiy) qiymat yo'qligini tushuntirish uchun ishlatiladi, bu alohida ekonometrik tadqiqotlarda ham tasdiqlangan⁸. Shu bilan birga, kripto valyutaga bo'lgan talab asosan agentlarning uning kurs qiymatining oshishi haqidagi umidlari bilan bog'liq va bunday kontekstda kripto valyutalar o'z egalariga ularni saqlashdan iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

⁸ Cheah E.-T., Fry J. Speculative bubbles in Bitcoin markets? An empirical investigation into the fundamental value of Bitcoin. *Economics Letters*. 2015;130:32–36.

Shunday qilib xulosa qiladigan bo'lsak, keng talqin qilishda kriptovalyutalar aktivlarning alohida xususiyatlarini tavsiflaydi. Zero, bunga qaramay, kriptovalyutalar mavzusi so'nggi yillarda muhokama qilinayotgan juda muhim mavzuga aylandi va ularning rivojlanish istiqbollari masalasi hozircha ochiqlicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.

2. Cheah E.-T., Fry J. Speculative bubbles in Bitcoin markets? An empirical investigation into the fundamental value of Bitcoin. *Economics Letters*. 2015;130:32–36.

3. European Central Bank. *Virtual currency schemes*. ECB Report. 1–55, October 2012.

4. Bank of international settlements, CPMI. Digital currencies. 2015; Bank of international settlements, CPMI. *Central bank digital currencies*. 2018.

5. European Central Bank. *Virtual currency schemes — a further analysis*. ECB Report; February 2015:1–37.

6. URL: https://www.ecb.europa.eu/stats/money_credit_banking/electronic_money/html/index.en.html

7. European Central Bank. *Virtual currency schemes — a further analysis*. ECB Report; February 2015:1–37.

8. International Monetary Fund. Money, transformed. The future of currency in a digital world. *Finance and development*. 2018;55(2).

9. Bank of international settlements, CPMI. *Central bank digital currencies*. 2018.